O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY-SIYOSIY FANLAR FAKULTETI

| | |
|---|---|
| Ro'yxatga olindi: | "TASDIQLAYMAN" |
| № BD- 60540100 - 60540200 | SamDU rektori: |
| 2024 yil "10" 10 | ____________ R.I.Xalmuradov |
| | 2024 yil " __ " ________ |

# UMUMIY PSIXOLOGIYA

## FAN DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 | – San'at va gumanitar fanlar |
| **Ta'lim sohasi:** | 220 000 | – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari) |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60220100 | – Tarix |
| **Bilim sohasi:** | 500 000 | – Tabiiy fanlar, matematika va statistika |
| **Ta'lim sohasi:** | 510 000 | – Biologik va turdosh fanlar |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60510100 | – Biologiya |
| | 60530100 | – Kimyo |
| **Bilim sohasi:** | 500 000 | – Tabiiy fanlar, matematika va statistika |
| **Ta'lim sohasi:** | 540 000 | – Matematika va statistika |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60540100 | – Matematika |
| | 60540200 | – Amaliy matematika |

Samarqand-2024

| Fan/modul kodi UPS 1106 | O'quv yili 2024-2025 | | Semestr I | ECTS – Kreditlar 6 |
|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi** Majburiy | **Ta'lim tili** O'zbek \Rus | | | **Haftadagi dars soatlari** 4 |
| **Fan nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | | **Umumiy (soat)** |
| **Umumiy psixologiya** | 72 | 108 | | 180 |

| | |
|---|---|
| | **I. Fanning maqsadi (FM)** |
| **FM1** | **Fanni o'qitishdan maqsad** – "Umumiy psixologiya" fani bo'yicha tuzilgan dastur talabalarning psixologiya sohasi bo'yicha mutaxassis sifatida shakllanishi uchun zarur bo'lgan tasavvurlar, bilimlar va ko'nikmalarga mo'ljallab tuzilgan. Talabalarning kasbiy tayyorgarligining asosiy olam, jamiyat va insonning o'rganishi uchun psixologik bilimlarga zaruratning mavjudligi; ularning dunyoqarashini boyitish va rivojlantirishda psixologik konuniyatlarni o'rganishga ehtiyojning mavjudligi; inson psixologiyasining umumiy psixologik konuniyatlarini, shaxs va voqyelik, shaxs va jamiyat, shaxs va predmetlar olami orasidagi munosabat, vokelikni anglashi, olamning psixologik tahlili, psixologik hodisalarning kechishi, psixologiyaning tarixiy va nazariy rolini jamiyatda olib borilayotgan ishlar orqali amalga oshirishga qaratilanligi bilan tavsiflanadi.<br>**Fanning vazifasi** – talabalarda umumiy psixologik bilimlarni shakllantirish, vokelik va jamiyatdagi voqyea-hodisalarning, shaxsning o'zida kechadigan jarayonlar va psixologik bilimlarni shakllantirish, ularni jamiyat hayotida umumiy psixologik hodisalar, holatlar va jarayonlarning mohiyatini tahlil etishga, shaxsning kamoloti va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, uning individual psixologik xususiyatlari, emosional va irodaviy sifatlarini tahlil etishga o'rgatishdan iborat. |

| | |
|---|---|
| | **Fan mazmuni** |
| | **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**<br>**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:** |
| | **Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)** |
| M1 | **Umumiy psixologiya fanining predmeti, sohalari va tadqiqot metodlari**<br>Umumiy psixologiyaning predmeti, vazifalari. Psixologiya fanining predmeti haqidagi tasavvurlar taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Psixika haqida tushuncha, psixikaning orientirovka qiluvchanlik va boshqaruvchanlik vazifasi. Psixik aks ettirish - obyektiv olamning subyektiv obrazi ekanligi. Bosh miya va psixika. Odam psixikasining paydo bo'lishi va uning taraqqiyoti.<br>Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va prinsiplari. Determinizm prinsipi, ong va faoliyat birligi prinsipi, ongning faoliyatda rivojlanish prinsipi. Aniq faoliyatni o'rganuvchi psixologiya sohalari, rivojlanishning yosh xususiyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari, shaxs va jamiyatga bo'lgan munosabatlarni o'rganuvchi psixologiya sohalari. Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari va ularning tahlili, kuzatish metodi, eksperiment metodi, suhbat va so'rovnoma metodi, faoliyat mahsulini o'rganish metodi, test metodi, sotsiometriya metodi, biografiya metodi, psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni. |
| M2 | **Shaxsning faoliyati va motivatsiyasi.**<br>Shaxs haqida tushuncha, individ, shaxs, individuallik tushunchalari. Shaxs faolligi tushunchasining mazmuni. Shaxs shakllanishiga tasir etuvchi omillar. Shaxs psixologik strukturasi.<br>Faoliyat haqida tushuncha, faoliyatning psixologik tahlili. Faoliyatning tuzilishi, faoliyatning o'ziga xosligi, faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizatsiyasi. |
| M3 | **Muloqot. Guruh psixologiyasi**<br>Muloqot va nutq haqida tushuncha, muloqot turlari. Muloqotning inson psixik rivojlanishidagi ahamiyati. Muloqot va uning ko'p maqomli xarakteri. Muloqot vazifalari. Muloqotning verbal va noverbal vositalari, muloqot shaxslararo o'zaro ta'sir etish sifatida, muloqot insonlarning bir-birini tushunishi, muloqot texnikasi va usullari.<br>Kichik guruhlar psixologiyasi. Kichik guruhlardagi muammolar. Kichik guruhlarning klassifikatsiyasi. Kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar. Katta guruhlar psixologiyasiga xos umumiy xususiyatlar. Etnik guruhlar psixologiyasi. Katta guruhlarningilmiy tadqiq qilishning metodologik muammolari |
| M4 | **Bilish jarayonlari psixologiyasi. Sezgi va idrok**<br>Sezgilar haqida umumiy tushuncha. Sezgilarning nerv-fiziologik asoslari. Sezgilarning tasnifi, sezgilarning turlari, ekstroretseptiv sezgilar, introretseptiv sezgilar, proprioretseptiv sezgilar, analizator va uning tuzilishi, sezgi sohasidagi qonuniyatlar.<br>Idrok haqida tushuncha. Idrokning nerv-fiziologik asoslari. Idrokning murakkabligi. Idrokda kuzatish va kuzatuvchanlik. Idrokning xossalari, idrokda ob'ekt va fon, appersepsiya, idrokning konstantligi. Idrokda illyuziya va gallyutsinatsiya. Vaqt, harakat va fazoni idrok qilish. |
| M5 | **Diqqat va xotira**<br>Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning nerv-fiziologik asoslari. Diqqat turlari, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriydan so'nggi diqqat. Diqqatning xususiyatlari, diqqat kuchi va bo'linishi, diqqat ko'lami, diqqat taqsimlanishi, shaxsda diqqat rivojlanishi |

| | |
|---|---|
| | Xotira haqida tushuncha. Xotiraning nerv-fiziologik asosi. Xotira nazariyalari. Xotira turlari, faoliyatga ko‘ra xotira turlari, maqsadiga ko‘ra xotira turlari, muddatiga ko‘ra xotira turlari. Xotira jarayonlari, esda olib qolish, esga tushirish, esda saqlash, unutish. Xotira tiplari. |
| M6 | **Xayol va tafakkur**<br>Xayol haqida tushuncha. Xayol jarayonlari. Xayol turlari, tasavvur xayoli, ijodiy xayol, ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol, orzu, tush ko‘rish va shirin xayol. Xayol sifatlari, xayolning kengligi va torligi, xayolning chuqurligi va realligi, xayolning mazmundorligi va kuchi, fantaziya. Xayolning rivojlanishi.<br>Tafakkur haqida tushuncha. Tafakkur va hissiy biliish. Tafakkur operatsiyalari, tafakkur shakllari, tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, tafakkur sifatlari, tafakkurning mazmundorligi, tafakkurning chuqurligi, tafakkurning kengligi, tafakkurning mustaqilligi, tafakkurning ixchamligi, tafakkurning tezligi, tafakkurning turlari. Shakliga ko‘ra tafakkur turlari, topshiriq xarakteriga ko‘ra tafakkur turlari, fikr yoyiqligiga ko‘ra tafakkur turlari, fikrning originallik darajasiga ko‘ra tafakkur turlari. Tafakkur borasidagi psixologik nazariyalar. Muammoli vaziyat va uni hal qilish. |
| M7 | **Shaxs hissiy-emotsional sohasi**<br>Emotsiya va hissiyot haqida tushuncha. His-tuyg`ularning vazifalari. Hissiy holatlarning nerv-fiziologik asoslari. Insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar. Hissiy holatlarning ifodalanishi, hislarni kechirish shakllari. Yuksak hislar. Hissiy ton, affekt, stress, praksik hislar, axloqiy hislar, estetik hislar, intellektual hislar. Hissiyotning o‘ziga xosligi. Hissiyotni boshqarish. |
| M8 | **Iroda naazariyi va taddqiqoti haqida tushuncha**<br>Iroda haqida tushuncha. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari. Iroda borasidagi nazariyalar. Irodaviy akt va uning tuzilishi. Irodaviy harakatlar va uni boshqarish. Shaxsning irodaviy sifatlari. Irodaning individual xususiyatlari. Irodani tarbiyalash |
| M9 | **Shaxsning individual xususiyatlari: Temperament, xarakter, qobiliyatlar**<br>Temperament haqida tushuncha. Temperament haqidagi tasavvurlarning rivojlanish tarixi. Oliy nerv faoliyati tipi va temperament. Temperament tiplari. Temperament xususiyatlari. Faoliyatning indvidual uslubi va temperament.<br>Xarakter haqida tushuncha. Xarakterning nerv-fiziologik asoslari. Xarakter tipologiyasi, xarakter tarkibi, xarakterning shakllanishi, xarakter aksentuatsiyasi. Xarakter tuzilishi va xususiyatlari. Xarakter borasidagi ta’limotlar. Xarakter va uning boshqa psixologik hodisalar bilan bog‘liqligi.<br>Qobiliyatlar haqida tushuncha. Qobiliyat va irsiyat. Qobiliyatlarning sifat va miqdor tavsifi. Qobiliyatlar tuzilishi. Talantning paydo bo‘lishi va |



| | |
|---|---|
| | tuzilishi. Qobiliyat va talantlarning tabiiy shartlari. Qobiliyat borasidagi nazariyalar, qobiliyatlarning rivojlanishi. |
| M10 | **Yosh davrlari psixologiyasi. Psixik rivojlanish va uni davrlashtirish muammosi**<br>Psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning o‘ziga xos xususiyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy omillari. Yosh tushunchasi. Psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosi (qadimiy va zamonaviy tasniflar). Yosh davrlarining etakchi faoliyat nuqtai nazaridan tasniflanishi haqida (D.B.Elkonin). Psixik rivojlanishda yosh davri inqirozi muammosi. |
| M11 | **Ontogenezning ilk bosqichlarida insonning psixik rivojlanishiga xos xususiyatlar**<br>Chaqaloqlik davrining umumiy fiziologik xususiyatlari. Apgar shkalasi bo’yicha fiziologik xolatni baxolash. Chaqaloqlik davrining psixologik xarakteristikasi. Chaqaloqlik davri inqirozi. Jonlanish kompleksi.Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlar haqida umumiy tushuncha. Tug`ilish davri inqirozi. «Tirilish kompleksi» haqida.<br>Go’daklik davrining asosiy fiziologik xususiyatlari. Rivojlanish masalalari. Go’daklik davrining psixologik xususiyatlari. Manipulyativ faoliyat, psixik funksiyalar. Emosional muomala yetakchi faoliyat sifatida. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo’lgan bolalar psixik taraqqiyoti xarakteristikasi. |
| M12 | **Maktabgacha yosh va kichik maktab yoshi davri**<br>Maktabgacha va kichik maktab yosh davrida psixofiziologik taraqqiyotning umumiy tavsifi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolaning etakchi faoliyati sifatida. Maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlari va nutqning rivojlanishiga xos xususiyatlar. Maktabgacha yosh davrida emotsional-irodaviy sifatlarning rivojlanish xususiyatlari.7 yosh inqirozi, uning sabablari va alomatlari. Maktabga psixologik tayyorlik muammosi. Maktabgacha yosh davrining ijtimoiy-psixologik muammolari.<br>Kichik maktab yoshi davrida kognitiv - affektiv sohalardagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrining ijtimoiy-psixologik muammolari. |
| M13 | **O’smirlik va o’spirinlik davri.**<br>O’smirlik davri inson taraqqiyotidagi tub burilish davri sifatida. O’smirlik davridagi asosiy fiziologik va neyrogumoral o’zgarishlar. O’g’il va qiz bolalarda o’smirlik davrida jismoniy rivojlanishdagi farqlar. Akselerasiya va uning o’ziga xosligi. O‘smirlik davrida kuzatiladigan asosiy psixologik o’zgarishlar.<br>Rivojlanish masalalari. Psixik jarayonlarning o’ziga xos xususiyatlari. Dunyoqarashning kamol topishi. Kasbga yo’naltirish va xayotiy istiqbol. Kasb tanlash nazariyalari (Ginzberg, Golland). Jinsiy rollar omili va kasb |

| | |
|---|---|
| | tanlash. Kasbga layoqatlilik va aloxida qobiliyatlar. Madaniy to'siqlar. Kasb tanlash motivasiyasi. O'spirinlik davrining turli ilmiy nazariyalardagi talqini. O'spirinlikning biologik nuqtai nazardan taxlil etilishi. |
| M14 | **Ta'lim va tarbiya psixologiyasi. O'qituvchi psixologiyasi** Ta'limning psixologik mazmuni. Ta'lim va aqliy taraqqiyot. O'qish faoliyati va uning turlari. Ta'lim va bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish muammolari hamda imkoniyatlari. Ta'limni boshqarishning metodlari. Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich tarkib toptirish nazariyasi va uning mohiyati. Muammoli ta'lim va muammoli vaziyat.Ta'lim texnologiyalarining psixologik xususiyatlari. Jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rni va uning vazifalari. O'qituvchiga shaxsiga qo'yiladigan talablar. O'qituvchining kasbiga xos xislatlari. O'qituvchi o'quvchilarning hayot va faoliyati tashkilotchisi ekanligi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar. Pedagogik muloqot va uning o'ziga xos xususiyatlari. O'qituvchining o'z malakasini oshirib borishning psixologik muammolari. Pedagogik qobiliyat: nazariya va amaliyot. Pedagogik ijodiyot va uning mohiyati. O'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va pedagogik jamoadagi psixologik iqlim. Bo'lg'usi o'qituvchi shaxsi sifatlari. |

| III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S) mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi. | |
|---|---|
| S1 | Umumiy psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari |
| S2 | Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va tadqiqot metodlari |
| S3 | Shaxs va uning faoliyati |
| S4 | Muloqot. Guruh psixologiyasi |
| S5 | Bilish jarayonlari psixologiyasi. Sezgi |
| S6 | Idrok |
| S7 | Diqqat |
| S8 | Xotira |
| S9 | Xayol |
| S10 | Tafakkur |
| S11 | Shaxs hissiy-emotsional sohasi |
| S12 | Iroda |
| S13 | Shaxsning individual xususiyatlari: Temperament |
| S14 | Xarakter |
| S15 | Qobiliyatlar to'g'risida tushuncha |
| S16 | Yosh va pedagogik psixologiya faniga kirish. Psixik rivojlanish va uni davrlashtirish muammosi |
| S17 | Ontogenezning ilk bosqichlarida insonning psixik rivojlanishiga xos xusuiyatlar |



| | |
|---|---|
| S18 | Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish |
| S19 | Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari |
| S20 | O'smirlik pixoogiyasi |
| S21 | O'spirinlik davrining paaixoogikk xusuiyatlaari |
| S22 | Ta'lim va tarbiya psixologiyasi |

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

**"Umumiy psixologiya"** fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari |
|---|---|
| 1. | Psixolgiya fanining dolzarb vazifalari, predmeti va metodlari |
| 2. | Shaxs va faoliyat |
| 3. | Nutq va muomala |
| 4. | Sezgi va idrok |
| 5. | Diqqat va xotira |
| 6. | Xayol haqida tushuncha |
| 7. | Iroda va hissiyot |
| 8. | Shaxsning individual psixologik xususiyatlari |
| 9. | Yosh va pedagogik psixologiyaning predmeti, vazifalari.Yosh davrlari psixologiyasi |
| 10. | Yosh davrlarining psixologik xususiyatlari |
| 11. | Ta'lim va tarbiya psixologiyasi |
| 12. | Bo'lg'usi o'qituvchi shaxsi va pedagogik qobiliyatlar |
| 13. | Reflektor xatti- harakatlar |
| 14. | Reflekslar haqida tushuncha |
| 15. | Psixik jarayonlarning vujudga kelishi |
| 16. | Hayvonlarda mehnat qurollaridan foydalanish |
| 17. | Filogenetik rivojlanish bosqichlari |
| 18. | Tug'ma va individual xatti-harakatlar |
| 19. | Nutqli va nutqsiz muomala |
| 20. | Ontogenezda inson psixikasining rivojlanishi |
| 21. | Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish |
| 22. | O'smirlik va o'spirinlik davri psixologiyasi |

**"Umumiy psixologiya"** fani bo'yicha mustaqil ish mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Fanni o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va fanga doir masalalarni yechishda ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib hamda Internet saytlaridan foydalanib referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy

vazifalarini bajaradilar, ko‘rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fan xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

-seminar mashg‘ulotlarga tayyorgarlik;

-darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;

-tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismini o‘zlashtirish;

-maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

-talabaning o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fan bo‘limlari va mavzularini chuqur o‘rganish;

-faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari;

-masofaviy ta’lim.

Barcha keltirilgan mavzularni har biri to‘g‘risida talabalar qay tarzda o‘zlashtirish, bilim ko‘nikmasiga ega bo‘lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

| | |
|---|---|
| 3. | **V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:<br>• umumiy psixologiya fanining asosiy kategoriyalari, jamiyat va shaxs kamolotidagi tutgan o‘rni va Psixologiya nazariyasi va metodologiyasiga aloqador tizimlar, kategoriyalar, mexanizmlar, qonuniyatlar, asosiy holatlar, Umumiy psixologiya fani bo‘limlari bo‘yicha (psixikaning evolyusion taraqqiyoti, shaxs psixologiyasi) psixologik bilimlarni tahlil etish va ulardan foydalana olish haqida ***tasavvur va bilimga ega bo‘lishi***;<br>• psixikaning ob’yektiv va sub’yektiv mezonlarini, psixikani rivojlanish bosqichlarini, inson psixikasining ijtimoiy-tarixiy tabiatini va shaxs psixologiyasining asosiy qonuniyatlari haqida ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi***;<br>• shaxslarning individual-psixologik xususiyatlarini tahlil qilishni va ichki regulyatsiyaning mazmunini amaliyotda qo‘llash ***malakasiga ega bo‘lishi kerak*** **“Umumiy psixologiya”** fanidan talabalar, psixologiya ijtimoiy va tabiiy fan sifatida talqinshi, psixologiya nazariyalari, sohalari va metadologik asoslari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;*** |
| 4. | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma’ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• munozara,<br>• o‘z-o‘zini nazorat.<br>• “Aqliy hujum”,<br>• “Muammo”;<br>• Krossvord<br>• Annogrammalar<br>• Ko‘chma dars mashg‘ulotlari |
| 5. | **VII. Kreditni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida |



| | |
|---|---|
| | mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta’limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish |

**6. ASOSIY ADABIYOTLAR:**


1. Ivanov P.I., Umumiy psixologiya. – O‘quv qo‘l. – T.: 2008- 480-bet.
2. Shamshetova A.K, Meliboyeva R.N., Usmonova X.E., Xaydarov I.O. Umumiy psixologiya. O’quv qo’l. –T.: 2018 –272 b.
3. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. T.: 2020-y.
4. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi/Darsllik/-T; “NIF MSH”, 2020,288 b.
5. Qodirov O., Hotamov Sh. “Ijtimoiy psixologiya” /Darslik/ Samarqand 2023. 360 b.
6. Ibragimov X.I., Yo‘ldoshev U.A., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya: o‘quv qo‘llanma. T.: 2009-y.-400 b.
7. Masharipov Y. Umumiy va sport psixologiyasi. O‘quv qo‘l. Toshkent. – 2016 – 250 b.
8. Jo’rayeva N.S., Saliyeva D.A., Sultonova N.A. Psixologiya tarixi. - “Darslik”. – T.: 2019 y. - 146-bet


**QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:**


9. Yangi O‘zbekiston strategiyasi Sh.M.Mirziyoyev Toshkent “O‘zbekiston” nashriyoti 2021-yil. 464 b.
10. Rivojlanish va yosh psixologiyasi M.Salaxutdinova O'/q SamDU. 2020. -132-bet.
11. Xaydarov F.I., Xalilova N. “Umumiy psixologiya”. T.: “Fan va texnologiyalar” markazining bosmaxonasi: 2009-yil.
12. Niyozov G‘., AxmedovaM. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011-yil.


**AXBOROT MANBALARI:**


13. www.gov.uz
14. www.pedagog.uz
15. www.ziyonet.uz
16. www.edu.uz


| | |
|---|---|
| 7. | Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil “24”-avgustdagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma’qullangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas’ullar**:<br>**Mamatova N.Dj.** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, “Pedagogika va umumiy psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi<br>**Sulaymanova D.N.** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, “Pedagogika va |

| | |
|---|---|
| | umumiy psixologiya" kafedrasi v.b.dotsenti |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**Shonazarov A.M.** – SamDU Amaliy psixologiya kafedrasi v.b.dotsenti (tel:(99)4598579).<br>**Butayeva U.A.** – O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Psixologiya kafedrasi mudiri P.f.f.d (PhD) (tel:(93)4164149). |

Universitetning 2024-yil 16-avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruh raisi M.Normamatova ________

**Kafedra mudiri:** **K.Xasanova**

**Fakultet dekani:** **A.Q.Aymatov**

**SamDU O'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor:** **A. S. Soleyev**



**Sharof Rashidov nomidagi SamDU Psixologya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi v.b.dotsenti Sulaymanova Dildora Nazarovna hamda o'qituvchi Mamatova Nazira Djuraqulovalarning Barcha nomutaxassis yo'nalishlar talabalari uchun "Umumiy psixologiya" fanidan tayyorlagan fan dasturiga**

**TAQRIZ**

2024-2025 o'quv yili kunduzgi ta'lim shakli mutaxassisligi bo'yicha Samarqand davlat universitetida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o'quv rejada "Umumiy psixologiya" faniga ma'ruza mashg'ulotlari uchun 28 soat, amaliy mashg'ulotlar uchun 44 soat va mustaqil ta'lim uchun 108 soat ajratilgan bo'lib, umumiy soat 180, ya'ni 6 kreditni tashkil etadi.

Fan dasturida ajratilgan soatlarga mos holda ma'ruza mashg'ulotlari uchun 11 ta mavzu, amaliy mashg'ulotlar uchun 22 ta mavzu va mustaqil ta'lim mavzulari uchun ham 22 ta mavzu tuzilgan. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mavzulari mazmuni jihatdan to'g'ri ketma-ketlikda tuzilgan bo'lib, umumiy psixologiyani o'rganishdagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun yetarli darajada ma'lumotlar bilan qamrab olingan.

"Umumiy psixologiya" fani bo'lajak mutaxassis umumiy psixologiya fanining asosiy kategoriyalari, jamiyat va shaxs kamolotidagi tutgan o'rni va Psixologiya nazariyasi va metodologiyasiga aloqador tizimlar, kategoriyalar, mexanizmlar, qonuniyatlar, asosiy holatlar, Umumiy psixologiya fani bo'limlari bo'yicha (psixikaning evolyusion taraqqiyoti, shaxs psixologiyasi) psixologik bilimlarni tahlil etish va ulardan foydalana olish oid nazariy bilimlarni egallashlari bilan birga, psixikaning ob'yektiv va sub'yektiv mezonlarini, psixikani rivojlanish bosqichlarini, inson psixikasining ijtimoiy-tarixiy tabiatini va shaxs psixologiyasining asosiy qonuniyatlari, shaxslarning individual-psixologik xususiyatlarini tahlil qilishni va ichki regulyatsiyaning mazmunini amaliyotda qo'llash malakalarini ham egallaydilar.

SamDU Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi mutaxassislari tomonidan tuzilgan ushbu fan dastur "Umumiy psixologiya" fani yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish metodlarini chuqur o'rgatishga qaratilgan. Mazkur fan dasturi amaldagi DTS talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. O'quv dasturida belgilangan mavzular fanning o'quv va ishchi o'quv rejalarida belgilangan soatlar hajmini to'liq qamrab oladi.

O'quv dasturining asosiy nazariy qismida ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va ushbu mavzularning tayanch tushunchalari berilgan. Ma'ruza mavzulari izchil bir-biri bilan uzviy ketma-ketlikda berilgan. Amaliy mashg'ulot mavzulari hamda mustaqil ta'lim topshiriqlari ham zamonaviy talablar asosida, ma'ruza mashg'ulotlariga bog'liq holda tuzilgan.

D.N.Sulaymanova va N.Dj.Mamatovalar tomonidan "Umumiy psixologiya" fanidan tayyorlangan fan dasturini barcha nomutaxassis yo'nalishlar 1-kurs kunduzgi ta'lim talabalariga ta'lim berishda foydalanish mumkin, deb hisoblayman va tasdiqlashga tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

"Psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa

Doktori (PhD) A. M. Shonazarov

**Sharof Rashidov nomidagi SamDU Psixologya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi v.b.dotsenti Sulaymanova Dildora Nazarovna hamda o'qituvchi Mamatova Nazira Djuraqulovalarning Barcha nomutaxassis yo'nalishlar talabalari uchun "Umumiy psixologiya" fanidan tayyorlagan fan dasturiga**

## TAQRIZ

Ma'lumki, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni tadqiqot etishga mo'ljallangan fanlardan bittasi psixologiya hisoblanadi. Psixologik bilimlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tatbiq etish ko'lami kengayib borishi uning mas'uliyati va nufuzi ortayotganligidan dalolat beradi. Xuddi shu bois psixolog mutaxassislarga nisbatan ijtimoiy buyurtmaning ko'payishi ularni hozirgi zamon talabiga javob beradigan darajada tayyorlashni taqozo qilmoqda. Istiqlol harofati tufayli ilmiy yondashuvlarga, oldingi metodologik muammolarga xolisona munosabatda bo'lish imkoniyati vujudga keldi.

Mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarida, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonun" da, "Milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasi" hujjatida mutaxassislar oldiga ulkan talablar va mas'ul vazifalar yuklamoqda. Ana shu vazifalarni amaliyotda o'z ifodasini topitirishda umumiy psixologiya fani muhim rol o'ynaydi. Mutaxassislar tayyorlash jarayonida umumiy psixologiya fani kasbiy bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni shakllantirish borasida ustuvor o'rin egallaydi.

2024-2025 o'quv yili kunduzgi ta'lim shakli mutaxassisligi bo'yicha Samarqand davlat universitetida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o'quv rejada "Umumiy psixologiya" faniga ma'ruza mashg'ulotlari uchun 28 soat, amaliy mashg'ulotlar uchun 44 soat va mustaqil ta'lim uchun 108 soat ajratilgan bo'lib, umumiy soat 180, ya'ni 6 kreditni tashkil etadi.

"Umumiy psixologiya" fani bo'lajak mutaxassis umumiy psixologiya fanining asosiy kategoriyalari, jamiyat va shaxs kamolotidagi tutgan o'rni va Psixologiya nazariyasi va metodologiyasiga aloqador tizimlar, kategoriyalar, mexanizmlar, qonuniyatlar, asosiy holatlar, Umumiy psixologiya fani bo'limlari bo'yicha (psixikaning evolyusion taraqqiyoti, shaxs psixologiyasi) psixologik bilimlarni tahlil etish va ulardan foydalana olish oid nazariy bilimlarni egallashlari bilan birga, psixikaning ob'yektiv va sub'yektiv mezonlarini, psixikani rivojlanish bosqichlarini, inson psixikasining ijtimoiy-tarixiy tabiatini va shaxs psixologiyasining asosiy qonuniyatlari, shaxslarning individual-psixologik xususiyatlarini tahlil qilishni va ichki regulyatsiyaning mazmunini amaliyotda qo'llash malakalarni ham egallaydilar.

Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi mutaxassislari tomonidan tuzilgan ushbu fan dastur amaldagi DTS talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. O'quv dasturida belgilangan mavzular fanning o'quv va ishchi o'quv rejalarida belgilangan soatlar hajmini to'liq qamrab oladi.

D.N.Sulaymanova va N.Dj.Mamatovalar tomonidan "Umumiy psixologiya" fanidan tayyorlangan fan dasturini barcha nomutaxassis yo'nalishlar 1-kurs kunduzgi ta'lim talabalariga ta'lim berishda foydalanish mumkin, deb hisoblayman va tasdiqlashga tavsiya etaman.

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti

Psixologiya kafedrasi mudiri P.f.f.d (PhD) [illegible]